



O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI YANADA YAXSHILASH VA UNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Xushvoqov Azizbek Sirojiddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: azizxushvoqov1085@gmail.com

ORCID:0009-0003-5432-676X

FACTORS FOR FURTHER IMPROVEMENT OF THE INVESTMENT CLIMATE IN UZBEKISTAN AND INCREASING ITS ATTRACTIVENESS

Khushvokov Azizbek Sirozhidinovich

Independent Researcher at Tashkent State University of Economics

E-mail: azizxushvoqov1085@gmail.com

ORCID:0009-0003-5432-676X

Annotatsiya. Maqolada investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish omillar tadqiq qilingan. Jumladan, yoshlar tadbirkorligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokini faollashtirish va ular faoliyatini takomillashtirish, yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini infratuzilma mavjud hududlarda tashkil etish, yirik tadbirkorlik subyektlariga davlat dasturlari doirasida garovsiz kreditlar berishning maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsiya muhiti, jozibadorlik, tadbirkorlik, maxsus iqtisodiy zonalar, infratuzilma, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, kredit, garovsiz kreditlar, davlat dasturlari, tadbirkorlik sub‘yektlari, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. The article examines the factors that increase the attractiveness of the investment climate. In particular, the feasibility of financial support for youth entrepreneurship, the activation of the participation of special economic zones and

the improvement of their activities, the creation of new special economic and industrial zones in areas with existing infrastructure, and the provision of state programs for interest-free loans to large business entities are substantiated. Based on the results of the study, proposals and recommendations for further improvement of the investment climate and increase of its attractiveness in Uzbekistan are formulated.

Keywords: investments, investment environment, attractiveness, entrepreneurship, special economic zones, infrastructure, financial support, credit, interest-free loans, government programs, business entities, technological development, economic development.

Kirish. Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish masalasi nafaqat kapital oqimini ko‘paytirish, balki milliy iqtisodiyotning texnologik va institusional rivojlanishini ta‘minlovchi strategik omildir. Biroq, Birlashgan millatlar tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, “hozirgi geosiyosiy vaziyat ta‘sirida 2025-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar ikki foizga kamaydi – 877 milliard AQSH dollarigacha” [1]. Darhaqiqat, globallashuv sharoitida

mamlakatlar o'rtasida cheklangan investitsiya resurslari uchun kurash keskin tus olmoqda. Ekzogen iqtisodiy o'sish modellari (masalan, Solou modeli) asosida qarajak, iqtisodiy yuksalish uchun asosiy drayverlardan biri – texnologik taraqqiyot va kapital jamg'arilishidir. Investitsiya muhitining jozibadorligi mamlakatga nafaqat moliyaviy mablag', balki yangi texnologiyalar kirib kelishini ta'minlaydi. Investitsiya muhitini yaxshilash – bu birinchi navbatda iqtisodiy institutlarni rivojlantirish demakdir. Nobel mukofoti laureati Duglas Nort nazariyasiga ko'ra [2], mulk huquqining himoyalangani va shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishi "transaksiya xarajatlari"ni kamaytiradi. Investitsiya jozibadorligi yuqori bo'lgan muhitda investorning xavf-xatarlari (risklari) pasayadi, bu esa kutilayotgan foyda normasining barqarorligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda dunyodagi geosiyosiy vaziyatning beqarorligi (logistika zanjirlarining uzilishi, sanksiyalar, energiya inqirozi) investitsiya muhitiga yangi talablar qo'yimoqda. Endilikda investorlar faqatgina arzon ishchi kuchiga emas, balki barqaror va xavfsiz "investitsiya hududi"ga ehtiyoj sezmoqda. Shu sababli, milliy iqtisodiyotning bunday o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshirish dolzarb ilmiy muammoga aylandi.

Adabiyotlar sharhi. Infratuzilmani rivojlantirish orqali investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish masalalari A.Muravyevaning ilmiy ishlarida tahlil qilingan [3]. D.Nuriyevaning dissertatsiyasida innovasion muhitni rivojlantirish orqali investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo'llari tadqiq qilingan [4]. A.Lisyanskiyning asarlarida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi tadqiq qilingan bo'lib, uning fikricha, "investitsiya jozibadorligi ancha subyektiv

tushunchadir, chunki u ko'p jihatdan investor turiga va uning maqsadlariga bog'liq, investitsiya muhiti esa ancha obyektivdir, chunki u investitsiya jarayonining barcha ishtirokchilariga ta'sir qiluvchi tendensiyalarni aks ettiradi" [5]. Sh.Mustafakulovning doktorlik dissertatsiyasida "investitsion muhit – investitsion jarayonlar amalga oshadigan sharoit bo'lib, u hududning investitsion faoliyati hamda investitsiyalarning risk darajasini aniqlaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanishi qayd etilgan va investitsion salohiyat aynan investitsion jozibadorlikni yuzaga keltirishi va uni oshirishga xizmat qilishi" [6] asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishda bir qancha omillar va ularning vazni muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan eng asosiylari quyidagilardan iborat.

1. *Eng avvalo, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda g'oyat muhim o'rin tutadi.*

O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishi iqtisodiyot uchun "Demografik dividend" imkoniyatini yaratadi. Ilmiy jihatdan, agar yoshlar mehnat bozoriga nafaqat ishchi kuchi, balki ish o'rni yaratuvchi (ish beruvchi) sifatida kirsas, yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o'sish sur'ati jadallashadi. Sababi, yoshlarning tadbirkorlik faolligi iqtisodiyotdagi boqimandalik yukini kamaytiradi va iqtisodiy faol aholi salmog'ini oshiradi. Iqtisodchi Y.Shumpeter nazariyasiga ko'ra [7], iqtisodiy rivojlanishning asosi – yangi kombinatsiyalarni joriy etuvchi

tadbirkorlardir. Yoshlar boshqa yosh guruhlariga nisbatan raqamli texnologiyalarni tezroq o'zlashtiradi, tavakkalchilikka (risk) moyil bo'ladi, innovasion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishga intiluvchan bo'ladi. Fikrimizcha, kreditlarning 40 foizini yoshlar uchun zaxira qilish – iqtisodiyotning texnologik yangilanishiga investitsiya kiritish demakdir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik ko'nikmalari erta shakllangan shaxslarda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'ladi. Yosh tadbirkorni qo'llab-quvvatlash orqali davlat uzoq muddatli soliq to'lovchi va barqaror xo'jalik yurituvchi sub'yektni shakllantiradi. Bu G.Bekkerning inson kapitali nazariyasiga

mos kelib [8]¹, kelajakdagi ijtimoiy xarajatlarni (ishsizlik nafaqasi, qayta tayyorlash va h.k.) kamaytiradi.

Oilaviy tadbirkorlik doirasida yoshlarning kapitalga ega bo'lishi "avlodlar vorisligi" mexanizmini ishga tushiradi. Katta avlodning tajribasi va yoshlarning zamonaviy qarashlari birlashadi. Oila ichidagi ishonch muhiti shartnoma tuzish va nazorat qilish bilan bog'liq xarajatlarni minimallashtiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasidagi kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va demografik dividenddan foydalanish nuqtai nazaridan mustahkam ilmiy asoslarga egadir.

1-jadval

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy natijalari [9]

Ko'rsatkich	Ijtimoiy-iqtisodiy natija
Ishsizlikni kamaytirish	"Yoshlar daftari"dagi fuqarolarning o'zini-o'zi band qilishi va qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi.
Ijtimoiy barqarorlik	Qishloq joylaridagi yoshlar uchun mulk va kapitalga ega bo'lish orqali ijtimoiy maqomini oshirish imkoniyati.
Kichik biznes salmog'i	YAIM tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining barqaror o'sishi.

Fikrimizcha, kredit resurslarining 40 foizini maqsadli ravishda yoshlar uchun ajratilishi – resurslarni taqsimlashning ijtimoiy adolatli va iqtisodiy samarali modelidir. Bu chora iqtisodiyotda "in'yeksiya" vazifasini o'tab, yaqin istiqbolda ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

2. *Ilg'or xalqaro tajribalardan kelib chiqib, O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish zarur.*

Yuqori texnologik va kapital sig'imi katta bo'lgan loyihalar (masalan, kimyo sanoati, mashinasozlik, farmasevtika) ko'pincha 10-15 yil ichida o'zini oqlaydi. Agar maxsus iqtisodiy zonalarining amal qilish muddati cheklangan bo'lsa (masalan, O'zbekistonda bu muddat 30 yilni tashkil qiladi), investor faoliyatining ikkinchi

¹ Мозговых А.В. Теория человеческого капитала Г. Беккера. [teoriya-chelovecheskogo-kapitala-g-bekker.pdf](#).

yarmida kapitalni kengaytirish yoki modernizatsiya qilishdan tiyiladi. Muddatsiz faoliyat investorga uzoq muddatli strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu "investitsiyaviy gorizont"ning kengayishiga va qayta investitsiyalash (reinvestitsiya) hajmining oshishiga olib keladi. Iqtisodiy modellarda noaniqlik investitsiyalar oldidagi eng katta to'siq deb qaraladi. Maxsus iqtisodiy zonalar muddatining cheklanganligi – bu kelgusida soliq va bojxona rejimlarining o'zgarishi borasidagi potensial xavfdir. Fikrimizcha, muddat bo'yicha cheklovning olib tashlanishi institusional muhitning barqarorlik indeksini oshiradi. Bu esa mamlakatning investitsiyaviy xatarlarini kamaytirib, institusional iqtisodiyot tili bilan aytganda, "o'yin qoidalarining doimiyliги"ni

ta'minlaydi. Maxsus iqtisodiy zonalar shunchaki korxonalar yig'indisi emas, balki vaqt o'tishi bilan shakllanadigan ekotizimdir. Muvaffaqiyatli maxsus iqtisodiy zonalar (masalan, Shenchjen yoki Dubay maxsus iqtisodiy zonolari) o'nlab yillar davomida rivojlanib, yirik sanoat klasterlariga aylangan. Zamonaviy iqtisodiy yondashuvga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalar vaqt o'tishi bilan alohida zonadan to'laqonli "aqlli shaharlar" yoki sanoat markazlariga aylanishi kerak. Muddatning cheklanganligi bunday transformatsiyaga to'sqinlik qiladi. Cheklovning bekor qilinishi zona hududida nafaqat ishlab chiqarish, balki ijtimoiy va ilmiy infratuzilmani rivojlantirishga turtki bo'ladi. Bu esa maxsus iqtisodiy zonalarning yashab qolish qobiliyatini oshiradi.

2-jadval

O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko'rsatish muddatini belgilash yoki unga oid cheklovlarni bekor qilishning amaliy ahamiyati [10]

Omil	Cheklov borligida	Cheklov bekor qilinganda
Investor strategiyasi	Qisqa muddatli foyda olish va chiqib ketish.	Uzoq muddatli kengayish va innovatsiya.
Kapital sig'imi	Yengil sanoat va tez aylanuvchi biznes.	Og'ir sanoat va yuqori texnologiya.
Infratuzilma	Davlat tomonidan vaqtinchalik qo'llab-quvvatlash.	Xususiy sektor tomonidan uzoq muddatli investitsiya.
Raqobatbardoshlik	Boshqa mamlakatlardagi muddatsiz zonalarga yutqazish.	Global bozorda barqaror o'rin egallash.

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatidagi muddat cheklovlarini olib tashlash – iqtisodiyotga "ishonch signali"ni berishdir. Bu ilmiy jihatdan iqtisodiy faoliyatning uzluksizligini ta'minlash, transaksiya xarajatlarini kamaytirish va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi strategik mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. *Infratuzilmani rivojlantirish – investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshirishning muhim omili.*

Yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faqat infratuzilmasi tayyor bo'lgan, iqtisodiy asoslangan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etish resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillariga to'liq mos keladi. Iqtisodiyotda "tashqi tejamkorlik" tushunchasi mavjud. Infratuzilma (elektr,

gaz, suv, yo'l) mavjud joyda zona tashkil etish davlat xarajatlarini keskin kamaytiradi va korxonalarining tezroq ishga tushishini ta'minlaydi. Infratuzilmaning tayyorligi investor uchun "kirish to'siqlarini" pasaytiradi va loyihaning kapital sig'imini kamaytiradi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan unumdor yerlarni sanoat uchun ishlatish muqobil xarajatlar nuqtai nazaridan zararlidir. Yer cheklangan resursdir. Sanoat zonalarini qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz yerlarda tashkil etish – ekologik muvozanatni saqlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning fundamental shartidir. Bu "Yer rentasi" nazariyasiga ko'ra, yerdan eng yuqori samaradorlik bilan foydalanish strategiyasidir.

Biznes-reja va master-reja asosida yondashish zonaning logistik zanjirlarga (xomashyo manbalari va bozorlarga yaqinlik) integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Veberning "Sanoat joylashuvi" nazariyasiga ko'ra, korxonaning joylashuvi transport xarajatlarini minimallashtirishga xizmat qilishi kerak. Master-rejasiz tashkil etilgan zonalar vaqt o'tishi bilan "o'lik zona"larga aylanib qolish xavfi yuqori. Shuningdek, har bir zonaning tashkil etilishini moliyaviy hisob-kitoblar bilan asoslash davlat byudjeti mablag'larining behuda sarflanishini oldini oladi. Bunda Kost-benefit tahlili qo'llaniladi. Ya'ni, zonaga tikilgan har bir so'm investitsiya kelgusida qancha soliq va ijtimoiy naf keltirishi oldindan ilmiy prognoz qilinadi.

3-jadval

Sanoat zonalarini tashkil etishda strategik yondashuvning qiyosiy tahlili [11]

Taqqoslash mezonlari	Tartibsiz (ekstensiv) yondashuv	Ilmiy va maqsadli (intensiv) yondashuv
Yer resurslaridan foydalanish	Unumdor yerlarning sanoat tagiga ketishi va oziq-ovqat xavfsizligiga xavf.	Faqat noqishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish, yerning iqtisodiy qiymatini saqlash.
Davlat xarajatlari	Yaqin atrofda tarmoqlar bo'lmagani sababli yangi kommunikatsiyalar tortishga katta xarajat.	Mavjud quvvatlardan foydalanish hisobiga byudjet mablag'larini tejash.
Investor uchun jozibadorlik	Infratuzilma kutish va hujjatbozlik tufayli vaqtning boy berilishi.	Tayyor maydoncha (ulan va ishla) tizimi orqali tez ishga tushish.
Loyihaviy asoslash	Ko'pincha hisob-kitoblarsiz, son ortidan quvish natijasida past rentabellik.	Master-reja va biznes-reja asosida yuqori moliyaviy samaradorlik.
Ekologik va ijtimoiy ta'sir	Aholi yashash punktlari yoki ekin maydonlariga salbiy ta'sir xavfi.	Sanoat xaritasiga muvofiq joylashtirish orqali ekologik barqarorlik.
Logistik imkoniyatlar	Transport yo'laklaridan uzoqlik sababli mahsulot tannarxining oshishi.	Mavjud transport xablariga yaqinlik va logistik xarajatlarning pastligi.

Shu munosabat bilan yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faqat infratuzilma mavjud bo'lgan yoki u bilan ta'minlash iqtisodiy asoslangan, moliyaviy samaradorligi hisoblangan biznes reja va master reja asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etish "intensiv iqtisodiy o'sish" modeliga asoslangan. Zonalarni miqdor jihatidan emas, balki sifat va samaradorlik jihatidan tashkil etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Davlat tomonidan dastlabki davrlarda yirik tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini garovsiz kreditlashni qo'llab-quvvatlash.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning bosqichma-bosqich kichik va o'rta biznes toifasiga o'tishini moliyaviy rag'batlantirish "Iqtisodiy o'sishning institusional o'tish" nazariyasiga asoslanadi. Bu jarayon ilmiy

tilda "biznesning rasmiylashtirilishi va kengayishi" deb ataladi.

Ko'pgina kichik tadbirkorlar yo'qolib qolgan o'rta bo'g'in muammosiga duch keladi: ular mikroqarz uchun juda katta, lekin yirik bank kreditlari uchun (garov yo'qligi sababli) juda kichiklik qiladi. Garovsiz kredit berish ushbu "moliyaviy bo'shliq"ni to'ldiradi. Tadbirkorning maqomi yuqorilashi (yakka tartibdagi tadbirkordan kichik korxonaga) uning buxgalteriya hisobini yuritishi, bank aylanmalarini shakllantirishi va soliq madaniyati oshishiga olib keladi. Bu mamlakatning institusional sifatini yaxshilaydi. Kichik va o'rta biznes iqtisodiyotning "xavfsizlik yostiqchasi" hisoblanadi. Yuz minglab kichik korxonalarining mavjudligi mamlakat iqtisodiyotini tashqi shoklarga nisbatan chidamlir oq qiladi, chunki ular tez moslashuvchan bo'ladi.

4-jadval

Biznesni yiriklashtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ilmiy asoslari [12]

Tahlil yo'nalishi	Ilmiy mohiyati va ta'siri
"Moliyaviy inklyuzivlik" tamoyili	Garovsiz kreditlar kichik sub'yektlar uchun asosiy to'siq bo'lgan "kapitalga kirish imkoniyati"ni ochadi. Bu past daromadli qatlamning iqtisodiy faolligini oshiradi.
Transformatsiya rag'batlari	Masalan, 50 mln va 150 mln so'mlik imtiyozli kreditlar tadbirkor uchun "iqtisodiy lift" vazifasini o'taydi, uni "yashirin iqtisodiyot"dan rasmiy sektorga o'tishga undaydi.
"Mikro"dan "Kichik"ka o'tish samarasi	Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biznes yiriklashganda mehnat unumdorligi ortadi. Yakka tartibdagi faoliyatdan kichik korxonaga o'tish professional boshqaruvni talab qiladi.
Risklarni diversifikatsiya qilish	Garovsiz kredit berish tizimi davlat va bankning tadbirkor bilan "tavakkalchilikni bo'lishishi" hisoblanib, bu ijtimoiy kapital va ishonchni mustahkamlaydi.
Multiplikativ bandlik	O'zini o'zi band qilgan shaxs faqat o'zini ishli qilsa, kichik korxonada kamida 5-10 ta qo'shimcha ish o'rni yaratadi. Bu ishsizlikka qarshi eng samarali ilmiy yechimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'z faoliyatini tegishincha yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirma yoki kichik korxonalar toifasigacha yiriklashtirgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 million so'mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida – 150 million so'mgacha garovsiz kreditlar berish "pastdan yuqoriga" iqtisodiy o'sish modeliga tayanadi. Kredit miqdorining tadbirkorlik toifasiga qarab differentsiatsiya qilinishi (50 mln va 150 mln so'm) tadbirkorni o'z faoliyatini doimiy kengaytirishga va sifat jihatidan o'sishga motivatsiya qiluvchi ilmiy asoslangan mexanizmdir.

Xulosa va takliflar.

Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish – bu shunchaki iqtisodiy ko'rsatkich emas, balki mamlakatning dunyo xo'jaligi tizimidagi raqobatbardoshligini belgilovchi fundamental omildir. Ushbu mavzuning ilmiy dolzarbligi mamlakatning barqaror rivojlanish modelini qurish, tashqi shoklarga chidamliligini ta'minlash va yuqori qo'shilgan qiymatli iqtisodiyotga o'tish zaruriyati bilan asoslanadi.

Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda quyidagi taklif va tavsiyalar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi:

yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq;

mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlash va investitsiyalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yanada oshirishda maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokini faollashtirish va ular faoliyatini takomillashtirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarning faoliyat ko'rsatish muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish;

yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faqat infratuzilma mavjud bo'lgan yoki u bilan ta'minlash iqtisodiy asoslangan, moliyaviy samaradorligi hisoblangan biznes reja va master reja asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etishning maqsadga muvofiq;

o'z faoliyatini tegishincha yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirma yoki kichik korxonalar toifasigacha yiriklashtirgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 million so'mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida – 150 million so'mgacha garovsiz kreditlar berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мировые потоки прямых иностранных инвестиций выросли после двух лет спада | Новости ООН.
2. Норт Дуглас. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. Перевод с английского А.Н.Нестеренко. Предисловие и научное редактирование Б.З.Мильнера. – М.: Фонд экономической книги «НАЧАЛА», 1997. 190 с. [douglass-north.pdf](#).

3. Муравбева А.О. Инструменты и методы повышения инвестиционной привлекательности региона на основе его инфраструктурного развития. Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки / Humanities, social-economic and social sciences. 2024. №5 (май) // [instrumenty-i-metody-povysheniya-investitsionnoy-privlekatelnosti-regiona-na-osnove-ego-infrastrukturnogo-razvitiya.pdf](#).
4. Нуриева Д.С. Повышение инвестиционной привлекательности региональных образований на основе развития инновационного климата. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Казань: Казанский национальный исследовательский технический университет им.А.Н.Туполева-КАИ. 2012. – 24 с.
5. Лисянский А.Б. Инвестиционная привлекательность региона: учебное пособие. – Самара: Издательство Самарского университета, 2020. – С. 15.
6. Mustafakulov Sh.I. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2017. 14-b.
7. Шумпетер Й. Теория экономического развития: исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры. Пер. с немец. В.С.Автономова и др. – М.: «Прогресс», 1982. – 455 с.
8. Мозговых А.В. Теория человеческого капитала Г. Беккера. [teoriya-chelovecheskogo-kapitala-g-bekker.pdf](#).
9. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilan.
10. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilan.
11. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilan.
12. Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilan.